



## THE TRAGEDY OF THE ERA AND THE INDIVIDUAL IN AMUZODA KHALILI'S STORY 'TWO UNRIPE DATES'

**Mohinabonu Sotiboldiyeva**

4th-year student of the Classical Persian group

School of Turkic Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: [Mohinabonu118@icloud.com](mailto:Mohinabonu118@icloud.com)

**O. Turdiyeva**

Doctor of Philological Sciences

Associate Professor at the School of Iranian and Afghan Studies

TSUOS

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Iran, story, Amuzoda Khalili, children's literature, Baloch people.

**Received:** 28.04.25

**Accepted:** 10.05.25

**Published:** 14.05.25

**Abstract:** This article analyzes the story "Two Unripe Dates" by Faridun Amuzoda Khalili, a contemporary Iranian children's writer. The work is dedicated to the difficult lives of the nomadic peoples living in Iran. Through this story, the author seeks to highlight the painful issues of the time and draw public attention to them.

## AMUZODA XALILIYNING "IKKI DONA PISHMAGAN XURMO" HIKOYASIDA DAVR VA SHAXS FOJIASI

**Mohinabonu Sotiboldiyeva**

4-kurs mumtoz fors guruhi talabasi

"Turkshunoslik" olyy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: [Mohinabonu118@icloud.com](mailto:Mohinabonu118@icloud.com)

**O. Turdiyeva**

filologiya fanlari doktori

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" olyy maktabi dotsenti

TDSHU

Tashkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** Eron, hikoya, Amuzoda Xaliliy, bolalar adabiyoti, balujlar.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Eron zamonaviy bolalar yozuvchisi Faridun Amuzoda Xaliliyning “Ikki dona pishmagan xurmo” hikoyasi tahlil qilinadi. Asar Eronda yashovchi ko‘chmanchi xalqlarning mashaqqatli hayotiniga bag‘ishlangan. Adib ushbu hikoya orqali davrning og‘riqli muammolarini yoritishga va jamoatchilikning diqqatini jalb qilishga harakat qilgan.

## ТРАГЕДИЯ ЭПОХИ И ЛИЧНОСТИ В РАССКАЗЕ АМУЗОДЫ ХАЛИЛИ 'ДВА НЕСПЕЛЫХ ФИНИКА'

**Мохинабону Сотиболдиева**

*Студентка 4 курса группы классического персидского языка*

*Высшая школа тюркологии*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*E-mail: [Mohinabonu118@icloud.com](mailto:Mohinabonu118@icloud.com)*

**O. Турдиева**

*доктор филологических наук*

*доцент Высшей школы иранистики и афганистики*

*ТГУВ*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Иран, рассказ, Амузода Халили, детская литература, белуджи.

**Аннотация:** В данной статье анализируется рассказ «Два неспелых финика» современного иранского детского писателя Фаридуна Амузоды Халили. Произведение посвящено трудной жизни кочевых народов, проживающих в Иране. Через этот рассказ автор стремится осветить болезненные проблемы времени и привлечь к ним внимание общественности.

Hozirgi zamon Eron bolalar adabiyotining taniqli vakillaridan biri Faridun Amuzoda Xaliliy 1959-yilda Semnon viloyatida tug‘ilgan. 1979-yili Tehron Universitetining matematika va texnologiyalari yo‘nalishida o‘qishga qabul qilinadi. Uning «Tog‘ faryodi» nomli birinchi kitobi 1981-yili dunyo yuzini ko‘rdi. Bolalarga atab yozgan «O‘tin», «Imtihon kunlari», «Uch oy kanikul», «Buvim biznikida mehmon bo‘lgan kecha», «Dadamning velosipedi», «Buloqchaning safari», «Sulaymon shahriga safar» va katta yoshdagilar uchun yozilgan «Eski qilich» to‘plamlari yosh hikoyanavisga shuhrat keltirdi. U «Buloqchaning safari» nomli hikoyalar to‘plami «Surushi javonon» hamda «Kayholi bachagon» jurnallari tomonidan «Yil kitobi» hamda «Inqilobdan keyingi birinchi o‘n yillikning eng yaxshi o‘n kitobi» sifatida tan olingan. «O‘tin» hikoyalar to‘plami uchun YUNISEF tashkilotining maxsus sovriniga ega bo‘ldi. Turli tashkilotlarning «Oltin oy», “Inqilobdan keyingi yigirma yilning eng yaxshi yigirma nafar yozuvchisi”, «Oltin lavh» mukofotlariga sazovor

bo'lgan. Eron Islom Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan «Birinchi darajali san'at ordeni» bilan mukofotlanadi.

Yozuvchining “Buloqchaning safari” nomli to'plamidan “Ikki dona pishmagan xurmo” nomli hikoyasi joy olgan. Bu hikoyada Eronning Seyiston va Balujiston viloyatida yashovchi ko'chmanchi xalqlar hayoti tasvirlangan. Balujlar ko'chmanchi xalq hisoblanib, keng yaylovlarda mollari bilan ko'chib yuradilar. Bu odamlar Eron jamiyatining kichik bir qismini tashkil qiladi. Keyingi paytlarda, ya'ni XX-asrning 2-yarmidan boshlab yaylovlarni tashlab, qishloq hayotiga yaqinlashib, chodirlari bilan shaharlarga yaqinlashib, turmush sharoiti og'ir joylarda yashay boshladilar. Kattalar ishlamaydi, bolalar mакtabga bormaydi, hamma duch kelgan ish bilan band.

Eng achinarlisi balujlar oilasi uchun bola savdosi oddiy narsa bo'lib qolgan. “Ikki dona pishmagan xurmo” hikoyasi juda katta ta'sir kuchiga ega va chuqur ma'noga ega. Unda qashshoqlik, majburiyat, oilaviy munosabatlar va bolalik bilan ulg'ayish o'rtasidagi ziddiyatlar aks ettirilgan. Otabola o'rtasidagi suhabatlar, oilaning oddiy, ammo hissiyotlarga boy hayoti hikoyaning asosiy qirralarini oolib beradi. Ota oiladagi qattiq yetishmovchilik sabab farzandini – o'g'lini bozorga olib chiqib sotmoqchi. Hikoyadan ayon bo'ladiki, bunday holat o'sha hudud uchun oddiy hol ekan. Ota vaziyatini farzandiga tushuntirishga harakat qiladi:

پәрм گәт: مجبورم. کارى از دستم برنمی آد. چە كنم؟ الان زود است كه اين چيز‌ها را بفهمى، اما بزرگتر كه بشوی حتماً مى فهمى. آن موقع ديگر اين جوري نگاهم نمى كنى و همه اش سؤال پيجم نمى كنى.

"Otam dedi: "Majburman. Qo'limdan hech narsa kelmaydi. Nima qilay? Hozir bu narsalarni tushunish uchun yoshlik qilasan, lekin katta bo'lsang, albatta tushunasan. O'shanda hozirgidek menga bunday qaramaysan va tinimsiz savol bermaysan.

Bu parcha og'ir oilaviy vaziyat va ota-onada hamda bola o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi. Asosiy mavzu – majburiyat tushunchasi. Otaning gaplaridan uning qiyin ahvolda ekanini, yetishmovchilik sabab qo'lidan hech narsa kelmayotganini anglash mumkin. U bolasiga ayni damdagi holatni tushuntirishga harakat qiladi, lekin shu bilan birga, bu voqealar bolaning tushunish darajasidan yuqori deb hisoblaydi. Otaning gap-so'zлari uning hayot tajribasidan kelib chiqqan bo'lsa-da, ba'zan bolaga nisbatan shafqatsizdek tuyuladi. Ammo bola ich-ichida otasining nega bunday qilayotganini tushunadi. Ayniqsa, otasining "bir kun sen ham majbur bo'lsan" degan gaplari bunday jarayon muntazam takrorlanib turadigandek tasavvur uyg'otadi.

Balujlarning ahvoli esayotgan kuchsiz shamol kapalar olib kelgan bir ayolning g'amgin qo'shig'ida namoyon bo'ladi:

برادر سال قحطى است. وطن من و شما فقير و ناچار است عزيز ... به خاک افتادن نهال خرمای نارس خيلى ناگوار است.

“Ukaginam, bu yil qahatchilik yili bo'ldi. Mening vatanim va sening vataning faqir va nochordir. Pishmagan xurmo niholining tuproqqa tushishi uvoldir.”

Bu qo'shiq hikoya nomi "Ikki pishmagan hurmo"ga ishora qiladi. Darhaqiqat, farzand inson umrining mevasi. Hikoyada shu meva hali yetilmay turib, o'z bog'boni tomonidan, uvol bo'lishi juda ta'sirli va jonli ko'rsatilgib berilgan.

اولин مشтари ке آمد، زод چане ам ра گرفт тои دستиш و سرم ра бала آورد و نکاه کرد توи صورتم. صورتش گوشتалу бод и ليهاиш бад крд бод и حشمهاиш тренак бод и من زود چشمهاим را пайин андахтм. گفت: دهант را بازكن و من باز مى خواستم فکر کنم)) (دهانت برای چی ((که فشار انگشتها يش دهانت را باز کرد:

- آه... آه... اين که همه اش کرم خورده است -

و چانه ам ра ол کرد. سرم برکشت طرف پدرم.

- بـو؟ فقط يـك دـانـه اـش سـيـاه شـدـه اـرـبـاب! بـقـيه اـش سـالـم اـسـتـ بـسـى و يـكـى اـش سـالـم سـالـم اـسـتـ -

نه همشهري! اين باب دندам نىست. مى خواهم بيرم يسته خندان كند. اين دندانها كه من ديدم، قوش را ندارد. بو روزه مى يـكـى مـى رـيـزـدـ تو دـهـانـشـ بـرـدـ كـه رـاهـ اـفـتـادـ، تـازـهـ مـن جـرـئـتـ كـرـدـ سـرـمـ رـا بـالـا بـيـاـورـمـ وـ اـزـ پـشتـ تـماـشـايـشـ كـنـمـ

Birinchi xaridor kelishi bilan darrov iyagimdan ushladi, qo'llari bilan mahkam tutib, boshimni yuqoriga ko'tardi va yuzimga tikildi. Uning yuzi to'ladan kelgan, yonoqlari shishgan, qoshlari esa qo'rqinchli edi. Men darhol ko'zlarimni pastga tushirdim. U dedi:

- Og'zingni och!

Men hali o'ylashga ulgurmabman: "Og'zimni nima uchun ochishim kerak?" deb. Lekin uning barmoqlari bosimi og'zimni majburan ochdi.

- Oh...Oh... Bu tishlarning hammasi chirimagan-ku!

Keyin iyagimni qo'yib yubordi va boshini otamga burdi.

- Qarang, janob! Faqat bitta tishi chirigan, qolgani butun! Hammasi joyida, sira shikoyat qiladigan joyi yo'q. Lekin xaridor boshini sarak-sarak qilib dedi:

- Yo'q, do'stim! Men bunday tishlarni istamayman. Uni kulib turadigan qilib bezattirmoqchiman. Bu tishlar esa kuchsiz, ko'rdim, ikki kun o'tmay og'zidan tushib ketadi.

U ketishga chog'lanib yo'lga tushdi. Men esa faqat shunda jasorat qilib, boshimni ko'tardim va ortidan qaray boshladim.

Bola ham sotilishini biladi, ayni damda u tuzuqroq xo'jayinga tushishni orzu qiladi. Bolaning otasi va xaridor o'rtasidagi jirkanch va behayo savdolashish, bu murg'ak bola uchun oddiy holdek ko'rindi.

Hikoya davomida yozuvchi personajlarni portret san'atidan foydalangan holda tasvirlagan. Masalan, bolaga xaridor bo'lib kelayotgan badavlat kishining portreti:

پир мурда үинк дашти и илми дасте норе ай и зонгир сауташ ангар тляи бод и рои жилие аш биро мурдан мурбандан бод.

Keksa xoja ko'ziga ko'zoynak taqib olgan, qo'lida dastasi kumushdan hassa tutgan, tilla zanjirli soati esa kamzulining cho'ntagidan chiqib turardi. Ko'zlar odamga juda ham mehribon boqardi.

Ammo bu kishi ziyolilarcha kiyangan, madaniyatli ko‘rinishiga qaramasdan odam savdosida ishtirok etmoqda. Hikoyada adib shu mintaqalar xalqiga xos so‘zlarni ko‘p qo‘llaydi va bu milliy koloritni, Eronning Seyiston va Balujiston viloyatlari manzaralari, hayot tarzi, turmush-ahvolini jonlantirib beradi. Masalan, “باد نم بى” – Nambi shamoli – Eronning dengizga tutashgan janub tomonidan esib, namlik va yomg‘ir olib keladigan shamol; “سدر” – shu viloyatlarda o‘sadigan kunor daraxtining bargini maydalab tuyish orqali qo‘lda yasalgan sovun; “سواوس” – xurmo daraxti po‘stlog‘idan to‘qilgan bog‘ichli shippak; 1,5– لنگوته m o‘lchamdagи shu viloyatlar xalqining milliy libos turlaridan biri bo‘lib, yelka va boshga tashlab yuriladi; “سریک” – shu viloyatlar ayollari kiyib yuradigan chodra.

Otaning odam savdosi bozorida ishi yurishmaydi, chunki u bolasini sotish uchun o‘g‘liga kattaroq narx qo‘yan. Xaridorlar birin-ketin ularning oldiga kelib, savdolashib, yana ortga keta boshlashadi. Bosh qahramon yonginasida sotilayotgan o‘spirin qiz uchun xaridorlar qizning bobosiga pul berib, uni tezgina sotib olib ketishadi. Bola sotilmaydi. Bu jirkanch manzaradan keyin o‘quvchida umid paydo bo‘ladi, otaning mehri jo‘shib ketgandek, endi bola o‘zi oilasi bilan yashaydigandek tuyuladi: bola uyiga, onasi, ukalari oldiga ketadi. Lekin otasi boshqa fikrda...

باید بیایم پابین تر نمی دام چه عیبی تو هیکلش می بینند که پشیمان می شوند؟... فردا باید بیایم پابین تر

– Pastroq tushishim kerak. Bilmadim, buning bo‘y-bastidan nima kamchilik topishdiykin?...

Ertaga narxini pastroq aytishim kerak...

Ushbu hikoyada Eronning aynan qaysi davri aks etganligini bilish qiyin. Adib bu asarda hech kimni ayblamaydi, faqatgina voqeadiagi o‘spirin yigitcha tilidan bayon qiladi. Yozuvchi voqealar rivojiga aralashmaydi, xolis turib kuzatadi.

Shunday qilib bolalar yozuvchisi Amuzaoda Xaliliy “Ikki dona pishmagan xurmo” hikoyasi orqali jamiyatdagi eng o‘g‘riqli masalalardan biri – odam savdosi masalasini ko‘tarib chiqqan. Shu orqali jamiyatning va hukumatning e’tiborini mashaqqatli hayot kechirayotganlarga qaratishni maqsad qilgan deb hisoblaymiz.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. فریدون عموزاده خلیلی. سفرچشمہ کوچک. تهران 2008
2. Турдиева О. Ҳозирги замон Эрон ҳикоянавислигининг ғоявий-эстетик хусусиятлари, жанр динамикаси. Тошкент 2016.
3. Мұхаммадизо Рузбек. Ҳозирги замон Эрон адабиёти. Т., 2012